

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

USMANOV MARUFDJAN RUSTAMOVICH

**JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA TURIZMNI
RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
географическим наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of doctor (DSc)
on geographical sciences**

Usmanov Ma’rufdjan Rustamovich

Janubi-g’arbiy O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning geografik
xususiyatlari..... 3

Усманов Маъруфджан Рустамович

Географические особенности развития туризма в Юго-западном
Узбекистане..... 29

Usmanov Ma’rufdjan Rustamovich

Geographical features of tourism development in Southwestern Uzbekistan 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 64

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

USMANOV MARUFDJAN RUSTAMOVICH

**JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA TURIZMNI
RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Gr60. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abbasov Subxon Burxonovich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turdimambetov Izimbet Raxmetovich
geografiya fanlari doktori, professor

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Turayev Bahodir Xatamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "4"-iyul" soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri. Universitet xiyoboni, 15-uy. SamDU bosh binosi 105-xona. Tel.: (+99866) 239-16-36), faks: (0366) 239-16-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№39-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 14-iyun kuni tarqatildi.
(2024-yil 3-iyundagi 13-raqamli reyestr bayonnomasi).



L.Z.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash rais o'rinbosari,
g.f.d. (DSc), dotsent

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.f.f.d (PhD)

Q.S.Yarashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, g.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ko‘pgina davlatlarning muhim daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida turizm asosiy o‘rin tutmoqda. Binobarin, 2030-yilga borib, jahon turizmida ishtirok etadiganlar soni 1,8 mlrd. kishiga yetishi kutilmoqda¹. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ning hisobotlarida turizmni barqaror rivojlantirish dasturlarida turizmni rivojlantirishning innovatsion xususiyatlari va jihatlarini ochib berish vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan dunyo bo‘yicha geografik turizmni rivojlantirish, turistik obyektlarga sayyohlar oqimini yanada oshirish, turistik salohiyatni yuksaltirish, turizm infratuzilmasini turizm potentsialini inobatga olib takomillashtirish asnosida turistik resurslarni to‘g‘ri baholash va yangi yo‘nalishlarini aniqlashni taqozo etadi.

Dunyo bo‘yicha turizm sohasini yuksaltirish, uning iqtisodiyotda tutgan o‘rnini geografik jihatlarini asoslash, geografik ahamiyatini va ulushini yanada oshirish maqsadida turizm bozorini samarali rivojlantirishga asos yaratadigan zamonaviy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning prognozi bo‘yicha turizm industriyasida 2030-yilgacha halqaro turizm o‘rni tendensiyasi turli regionlarda turlicha bo‘lishi, barqaror o‘rni dinamikasi Osiyo va Tinch okeani regionidagi bir qancha mamlakatlarda ijobiy rivojlanishi xalqaro ekspertlar tomonidan e‘tirof etilmoqda. Bundan tashqari geografik turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarni hamda sayyohlik maskanlarini, turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos mintaqaviy farqlarni aniqlash, ularning ichki imkoniyatlarini baholash, sayyohlarga ko‘rsatiladigan xizmat turlarini ko‘paytirish hamda ularni hududiy tashkil etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda turizm va rekreatsiya sohasi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan uning tabiiy geografik xususiyatlarini inobatga olishda zamonaviy metodlardan foydalanish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning 35-maqsvadi “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish...”² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, respublikamizda turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyundagi PQ-238-sonli “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori,

¹ <https://www.unwto.org/tourism-in-2030-agenda>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 20.02.2022, PF-60 sonli farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 3-dekabrda 978-son “Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”, VIII. “Yer haqidagi fanlar” va V. “Turistik hududiy tizimlarni shakllanishi, rekreatsiya va turistik imkoniyatlarning rivojlanishini baholash va tahlil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, hududiy-ishlab chiqarish komplekslari (tizimlari)” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Turizm xizmatlarini hududiy rivojlantirish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, istiqbolda rivojlanishi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan, The World Tourism Organization (Ispaniya), Florida Atlantic University (AQSh), University of South Alabama (AQSh), National Louis University (Kanada), Bangor university (Britaniya), Staffordshire University (Britaniya), University din Bucuresti (Ruminiya), Alexandru Ioan Cuza university din Iatu (Ruminiya), Sun Yat-sen University (Xitoy), The Caribbean Tourism Institute (Barbados), University of Otago (New Zealand), Moskva davlat universiteti (Rossiya), shuningdek, Toshkent davlat transport universiteti (O‘zbekiston), Toshkent Iqtisodiyot universiteti (O‘zbekiston), Samarqand iqtisodiyot va servis instituti (O‘zbekiston), “Ipak yo‘li” Turizm xalqaro universiteti (O‘zbekiston) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Samarqand davlat universitetlarida olib borilmoqda.

Turistik xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishni ta‘minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy tizimni takomillashtirish, qisqa muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari samarali foydalanishni tartibga solish mexanizmlarini ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga oid bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Turizm iqtisodiyotiga strategik sektor maqomini berish, barcha hududlarda o‘zaro bog‘liqligini kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo‘lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy

³ Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.unwto.org>; <https://www.fau.edu>; <https://www.southalabama.edu>; <https://www.bangor.ac.uk>; <https://www.aber.ac.uk>; <https://www.sysu.edu.cn>; <https://www.msu.ru>; <https://tsue.uz>; <https://arm.sies.uz>; <https://univ-silkroad.uz> kabi saytlari asosida tuzilgan.

o'zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish orqali aholini turizmga bandligini oshirishga qaratilgan mexanizmlari takomillashtirilgan (Institute of Labor Economics, Germaniya), turizmning nazariy va amaliy masalalari, geografik xususiyatlari hamda zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish usullari ishlab chiqilgan (Alexandru Ioan Cuza din Iasi, Romania), turistik destinatsiyalarni hududiy tadqiq etishning hozirgi zamon muammolarini yechimini hal etish (The economics of tourism destinations, UK), turizmni rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy investisiyalarni jalb qilish, sohani rivojlantirishga qaratilgan hamkorlikni muvofiqlashtirish va maslahatlashuvni ta'minlash bo'yicha xalqaro dasturlar ishlab chiqilgan (Regional Tourism New Zealand, Yangi Zelandiya), turizm marketingi va maqsadli rivojlanishga qaratilgan muhim strategiyalar ishlab chiqilgan (Brisbane Economic Development Agency, Avstraliya), mehmondo'stlik sanoati turizmni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ilmiy va o'quv dasturlari ishlab chiqilgan (The Caribbean Tourism Institute, Barbados).

Jahonda turizmni va turistik resurslarni geografik baholash va rayonlashtirish sohasida bir qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan: turizmni iqtisodiyotning etakchi tarmog'i sifatida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini aniqlash va uni barqarorlashtirish, turizmni hududiy tashkil etish va mintaqa iqtisodiyotiga ta'sir darajasini o'rganish, turizm faoliyatini mintaqalarda barqaror rivojlantirishni nazorat qilish va turizmni turlari shakllantirish va takomillashtirish; turistik resurslardan samarali foydalanishni baholash; mintaqalar iqtisodiyotni diversifikasiyalash sharoitida turizmning ahamiyatini baholash va istiqbolda turistik tizimlarni o'rganishda masofaviy metodlar, jumladan, GAT ga asoslangan metodlardan foydalanish; turli mavzuli mintaqalar turistik atlaslari, turmarshrutlar, turistik rayonlashtirish, kartalarni tuzish, hududlarning turistik resursini baholash va rayonlashtirish, ularni optimalashtirishning geografik asoslarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm geografiyasining (TG) fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida dastlabki izlanishlar XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin I.G.Kol, A.Gettner TG o'ziga xos jihatlarini ochib berdi. "Turizm geografiyasi" terminini birinchi bo'lib fanga 1905-yilda D.Stradner kiritgan. Fransiyada birinchi bo'lib R.Blanshar (1920) Alp tog'ida turizm xo'jaligi va turistik marshrutlarni tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar o'tkazdi. Italiyada A.Mariotti turizmning tarixiy bosqichlarini ajratdi va shu asosda uni o'rgandi. 1936-1939-yillarda turizm sohasi bo'yicha Krakovdagi Yagellon universitetida turistik kadrlar tayyorlashga katta ahamiyat berildi. Shu davrda polyak geografi S.Liship turizm geografiyasining ilmiy-uslubiy jihatlarini o'rganib, o'zining asarlarida "Turist geografiyasi" va "Turizm geografiyasi" terminlarini geografik adabiyotlarga kiritdi. U turistik tadqiqotlarda kartaning muhimligini alohida ta'kidladi. XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi yillarda Sobiq Ittifoqda ham bu yo'nalish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoblebov (1984) rekreatsiya va turizmning geografik xususiyatlari to'g'risida, P.N.Zachinyayev, N.S.Falkovich (1972) xalqaro turizmning geografik joylanishi va rivojlanishi bo'yicha ilmiy asarlar yaratdi. Bundan tashqari, turizm

geografiyasining nazariy va uslubiy asoslarini Pirojnik I.I, Kotlyarov E.A., Aleksandrova A.Y., Dmitrevskiy Y.D., Yerdavletov S.R. va boshqalar ham ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin. Fanlar akademiyasining Geografiya instituti olimlari: I.P.Gerasimov, V.S.Preobrajenskiy, A.A.Mins, B.N.Lixanov, Y.A.Vedenin, I.V.Zorin, L.I.Muxina, E.B.Alayev va boshqalar izlanishlar olib bordi. Shuningdek, turizmning turli yo‘nalishlari bo‘yicha N.M.Svatkova, K.M.Krivosheyeva, B.G.Fadeyev, D.Kobaxidze, Y.A.Shtyurmer, U.N.Nabiyeva, M.I.Azar kabi ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Turizm sohasi va uning turli tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlarini tadqiq etishda MDH davlatlarida A.Y.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, Y.A.Vedenin, S.R.Yerdavletov, P.N.Zachinyayev, I.I.Pirojnik, Y.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiyev, E.A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizm geografiyasining ayrim muammolari bo‘yicha Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, Y.I.Ahmadaliyev, Sh.A.Azimov, A.Zokirov, F.Komilova, A.A.Rafiqov, A.Soliyev, A.Nigmatov, T.Toshmurodov, B.Husanboyev, N.To‘xliyev, B.X.To‘rayev, A.Taksanov, A.Yusupov, R.Xayitboyev, N.T.Shamuratova, X.Mamatqulov, O‘.Badalov, J.Xasanov, E.Mahkamov, X.Jumayev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ammo, respublikamizda mintaqaviy turizmning hududlar darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy geografik rivojlanish xususiyatlari va tendensiyasini ilmiy jihatdan asoslash, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishni ta‘minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy tizimni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan. Bularning barchasi ushbu tadqiqot ishi mavzusining tanlanishi hamda yuqoridagi kamchiliklarni to‘ldirishdan iboratdir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat universiteti hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-61 “O‘zbekistonning turistik-rekreatsion salohiyatini rivojlantirishda mintaqaviy geoaxborot tizimini shakllantirish” (2017-2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyihasi va “Turizm geoaxborot tizimida yangi turistik marshrutlarni yaratish” (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda turizmni ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatdan rivojlantirish xususiyatlarini hududiy xususiyatlarini aniqlash, ilmiy-amaliy tavsiya va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm tushunchalarining geografik mohiyatini asoslash va metodologik yondoshuv, tasniflash tamoyillari va metodlarini tahlil qilish;

turistik destinatsiyani turizm geografiyasining o‘rganish obyekti sifatida o‘rganish;

turizmni rivojlantirishga tasir qiluvchi geografik omillarning ta‘sirini o‘rganish;

turistik klasterlar - mintaqa turizmini rivojlantiruvchi omil sifatida tadqiq etish;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonda turizmni mintaqaviy rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq qilish;

mintaqa turizmi rivojlanishida brendlarning oʻrnini aniqlash;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonning istiqbolli turistik marshrutlarini ishlab chiqish;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonni turistik rayonlashtirish va turizmning milliy modeli takomillashtirish muammolari hamda istiqbollari tahlil qilish va baholash;

Tadqiqotning obyekti sifatida Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston turizm sohalari olingan.

Tadqiqotning predmetini Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonda turizmning shakllanishi, rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik, statistik, dala-tadqiqot, geografik taqqoslash, SWOT tahlil, ekstropolyasiya, tanlanma sosiologik usullar va GAT texnologiyalari usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turizm geografiyasi va mintaqaviy turizm, turistik destinatsiya tushunchalari tahlil qilindi va ularning geografik xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi tahrirdagi takomillashgan taʼriflari ishlab chiqilgan;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston mintaqasining turizmi geografik jihatdan ilmiy asoslangan va zamonaviy rivojlanish tendensiyasining asosiy yoʻnalishlari aniqlangan;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston mintaqasining ArcGIS dasturi yordamida tuzilgan (1:1000000 masshtabli) turistik rayonlashtirish, turistik obektlar, tarixiy yodgorliklar va diniy qadamjolarini oʻzida aks ettiruvchi turistik kartalari ishlab chiqilgan;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston miqyosida turistik obektlari bilan bogʻlovchi yangi marshrutlar ishlab chiqilgan;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonning turistik resurslaridan oqilona foydalanish hamda sohani barqaror rivojlantirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizm geografiyasi va mintaqaviy turizm, turistik destinatsiya tushunchalari tahlil qilindi va ularning geografik xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi tahrirdagi takomillashgan taʼriflari ishlab chiqilgan;

mintaqaviy turistik rayonlashtirish mezonlari asosida Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston mintaqasi turistik rayonlashtirilgan;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston turistik mintaqalarining qulay iqlim sharoitlari, boy tabiiy va madaniy-tarixiy resurslari imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turistik ixtisoslashuvi aniqlangan, har bir turistik mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari hamda turistik klaster va turmarshrutlar ishlab chiqilgan;

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistondagi viloyatlari turistik rayonlashtirilgan va ularning turistik kartalari yaratilgan.

Samarqandni “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusida turizm xizmatlari hajmini oshirish, Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish

bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish va Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha turistik marshrutlar, mobil ilova va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy me'ros vazirligi va uning hududiy boshqarmalari malumotlari hamda dala-kuzatuv ishlari asosida bajarilganligi, shuningdek, asosiy natijalar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turizm geografiyasining metodologik asoslari va ularga yangicha ilmiy yondoshilganligi, mintaqalar turistik resurslaridandan foydalanish imkoniyatlarini baholash metodikasi ishlab chiqilganligi, turizm turlarini rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq etish metodologiyasi takomillashtirilgani, O'zbekistonni mintaqaviy turistik rayonlashtirilganligi va uning kartalari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta'lim tizimida turizm sohasiga aloqador bo'lgan kadrlar tayyorlashda, mintaqalarda turizmni rivojlantirishning mexanizmini takomillashtirish orqali mintaqalarda turmahsulotdagi ulushini oshirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining tuzilmalari faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning 2019-2025-yillarga mo'ljallangan Konsepsiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Janubi-g'arbiy O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va uning mintaqaviy xususiyatlari hamda turistik resurslardan samarali foydalanish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

turizm geografiyasi ilmiy-uslubiy va nazariy asoslari, fanining o'rganish obyekti va predmeti, hududiy turistik majmualar, mintaqaviy turizm, Janubi-g'arbiy O'zbekistonning mintaqasi turizmi imkoniyatlarini baholash, geografik jihatdan ilmiy asoslash, mintaqaga keladigan turistik oqimning istiqboldagi yo'nalishlarini belgilash, Janubi-g'arbiy O'zbekiston hududi bo'yicha yangi turistik marshrutlar yaratish, turizm turlarini rivojlantirish imkonini beruvchi alohida hududlarni ajratib olish, shuningdek, turizmni rivojlantirish strategiyasini jadallashtirish imkonini beradigan taklif va tavsiyalari 5140600-Geografiya bakalavr va 70530401-Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya mutaxassisligi uchun nashr qilingan "Turizm va rekreasiya geografiyasi" nomli darsligi (Guvohnoma №237-t-008, 2021-yil 31-may, 237-son) mazmuniga singdirilgan (Samarqand davlat universitetining 2023-yil 11-dekabrda 10-6423-sonli ma'lumotnomasi). Natijada turistik xizmatlar sohasida turizm va mintaqaviy turizm tushunchalarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tizimli va kengroq tushunishini ta'minlash orqali o'qitish sifatini oshirishga erishilgan hamda o'quv dasturlari, ishchi o'quv dasturlari va sillabuslarni takomillashtirish imkonini bergan;

turizm geografiasining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish hamda mintaqaviy turistik rayonlashtirish ishlaridan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasida amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 7-dekabrda 02-12-17-1958-son ma‘lumotnomasi). Natijada turizm sohasini yanada rivojlantirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqishda foydalanilgan;

mintaqalarning turistik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, turistik oqimning barqaror o‘shishiga erishish, turistik oqimi past bo‘lgan hududlar reyting darajasini oshirish maqsadida O‘zbekiston hududlarini Sharqiy, Shimoliy-sharqiy, Janubiy, Markaziy va Shimoliy-g‘arbiy turizm mintaqalariga rayonlashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 7-dekabrda 02-12-17-1958-son ma‘lumotnomasi). Natijada hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, turistlarning turistik obyektlarda sayohat vaqti davomiyligi, majmual va mavzuli turistik marshrutlar ishlab chiqish imkonini oshirgan;

Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston mintaqasining ArgGIS dasturi yordamida tuzilgan (1:1000000 masshtabli) turistik rayonlashtirish, turistik resurslar, obektlar, madaniy me‘ros yodgorliklar va diniy qadamjolarini o‘zida aks ettiruvchi turistik kartalaridan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 7-dekabrda 02-12-17-1958-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston hududi bo‘yicha yangi turistik marshrutlar yaratish, turizm turlarini rivojlantirish imkonini beruvchi alohida hududlarni ajratib olish, shuningdek, mintaqa turizmni rivojlantirish strategiyasini jadallashtirish imkonini bergan;

Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda turistik obektlari bilan bog‘lovchi ishlab chiqilgan yangi marshrutlardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 7-dekabrda 02-12-17-1958-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish turistlarning mamlakat milliy turistik mahsulotlari va jozibador turistik hududlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lishlari uchun imkoniyat yaratib, turistik mahsulotning jozibadorligi va mamlakatimizga tashrif buyuruvchi oqimining barqaror o‘shishiga yordam bergan;

Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda turizmni kompleks rivojlantirishda tabiiy, madaniy, tarixiy, ziyorat, agroturizm, gastronomik, ekoturizm turlaridan oqilona foydalanish hamda turistik tashriflari bilan bog‘liq xizmatlari, turistik infratuzilma va servis sohasini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston

Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2023-yil 7-dekabrda 02-12-17-1958-son ma'lumotnomasi). Natijada Janubi-g'arbiy O'zbekistonda turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirish, hududlarda turistik infratuzilmani yaratish orqali mintaqaning turistik imkoniyatlari hamda tashrif buyuruvchi ichki va xalqaro turizmda mintaqaga uchun jozibador va turbrendlar yaratish hamda turistik oqimining ortishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Mazkur tadqiqot natijalari 39 ta, jumladan 24 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta monografiya, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 36 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta mahalliy va 8 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosa va amaliy tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida o'z aksini topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 240 sahifa, shundan matn qismi 198 betni tashkil qiladi. Ishda 6 ta karta, 7 ta rasm, 14 ta jadval va ilovalar mavjud.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida O'zbekiston Respublikasi va jahonda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, chop etilgan natijalar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Turizm geografiyasining nazariy va metodologik asoslari**" deb nomlanib, unda turizm geografiyasining nazariy asoslari, turizmni tasniflash tamoyillari va metodlari tahlil qilindi, turistik destinatsiya turizm geografiyasining o'rganish obyekti sifatida yoritilib, O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari o'rganildi va takomillashtirildi.

Turizm terminini birinchi bo'lib 1830-yilda V.Jekmo tomonidan qo'llanilgan edi. Bu tushuncha fransuz tilida "tour", sayohat ma'nosida ishlatilgan. Turizm va turist tushunchalari o'z navbatida bir ma'nodagi tushuncha sifatida qarash noo'rindir. Turizm keng ma'nodagi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida barcha turistik xizmatlar yig'indisidan iborat soha hisoblanadi. Turist esa shu sohada ishtirok etadigan muayyan shaxs o'zi yashaydigan yoki boshqa joy,

hudud, mamlakatda bo‘lib xaq to‘lanadigan xizmat bilan mashg‘ul bo‘lmasdan, turli xizmatlardan foydalangan shaxsga aytiladi. Turist o‘z navbatida turizmga band bo‘lgan kishilardir.

A.Nigmatov fikricha, “Turizm-shaxsning doimiy yashash joyidan vaqtinchalik borar joyiga 24 soatdan to 6 oy muddatga ketma-ket, muayyan maqsadda yoki maqsadlarda pul to‘lanmaydigan sayohatni turli miqyosda tizimli tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish san’ati”-deb ta’riflaydi.

Turizm termini va tushunchalarga Bern universiteti professorlari Xunziker va Krapflar aniqroq baho beradi. Jumladan, turist - bu o‘zi yashaydigan joydan boshqa joyga, hududga, mamlakatga, mamlakatidan tashqariga bo‘sh vaqtlarida dam olish, sog‘lig‘ini tiklash, sog‘lomlashtirish, mehmonga borish, diniy va ish yuzasidan haq to‘lanadigan maqsadlaridagi tashrifidir, deb ta’rif beradi.

A.Soliyev va M.Usmonovlar (2005) turizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: **“Aholining o‘zi yashab turgan mintaqaga, hudud, o‘lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish maqsadida uyushtirilgan faoliyat turiga turizm”** hisoblanadi. 1963-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Xalqaro turizmga oid Rim konferensiyasiga muvofiq turist deb, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib, kamida 24 soat ichida o‘sha yerda turib, turistik xizmatidan foydalangan kishiga aytiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 18-iyulda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risida (O‘RQ-549-son) Qonuni 3-moddasida “turizm-jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)” deb ta’rif berilgan.

Biz turizm geografiyasining o‘rganish predmetiga quyidagicha ta’rif berdik. Turizm geografiyasi (TG) ijtimoiy geografiyaning bir bo‘lagi bo‘lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va hududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o‘rganadigan fandır.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada mavjud 5 ta tamoyil, jumladan hududiylik, majmualilik, tarixiylik, ekologik va demosentrik tamoyillar turizmga ham ahamiyatlidir. Turizmni tasniflashda avvalo uning yuzdan ortiq turlari, kelajakda yangidan-yangi turlari paydo bo‘lishini inobatga oladigan bo‘lsak, ularni guruhlashtirish, tasniflash, tipologiyasi muhim masalalardan hisoblanadi.

Turizm tasnifi - turistik faoliyatning taksonomik asoslariga ko‘ra tiplarga, kategoriyalarga, turlari va ko‘rinishlarga ajratiladi. Turistik tasnifda turizm turlari miqdori bilan belgilansa, uning tipologiyasi esa turizm turlarining sifat jihati tadqiq etiladi. Ba’zi olimlar fikricha, turizm o‘zining umumiy xususiyatlari va funksiyalariga ko‘ra uch tipga ajratildi; 1. Davolanish, 2. Sog‘liqni tiklash-sport, 3. Tanishuv turizmi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tipologik funksiyalarni hisobga olgan holda turizmni sog‘lomlashtirish va sport, tanishuv, diniy, kasbiy va boshqa turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, turizmning ikki asosiy bo‘limi mavjud bo‘lib, bular ichki (mahalliy) va tashqi (xalqaro) turizmdir.

Ilmiy manbalarda taklif qilingan “destinatsiya” tushunchasining ta’riflari tahlil qilinib, uning muhim jihatlari ko‘ra to‘rtta guruhga: hududiy, iqtisodiy,

ijtimoiy, boshqaruvga ajratib o'rganish mumkin. Turistik destinatsiya – bu ma'lum chegaraga ega bo'lgan, turistlar keng ko'lamli guruhini jalb eta oladigan va ularning talablarini qondira oladigan geografik hudud hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodchi olimlar tomonidan turizm destinatsiya masalasida turlicha qarashlar va ta'riflar berilgan. Ammo bu tushuncha aynan geografik tadqiqotlarning obyekt sifatida geograf olimlar tomonidan chuqur o'rganilmagan. Vaholanki, turistik destinatsiya - turizm geografiyasining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida regionlar va mamlakatlardagi ma'lum bir jozibador manbaga ega bo'lgan hududlarni o'rganadi. X.M.Mamatqulov fikri bo'yicha, turistik destinatsiya – bu ma'lum xizmatlar taklif qiladigan, turistning yehtiyojini qondiradigan, maqsadlari talabiga javob beradigan hudud yoki manzildir. Y.G.Alyonova fikriga ko'ra, turistik destinatsiya – bu jismoniy, siyosiy yoki bozor chegaralari kabi, haqiqiy yoki xayoliy chegaraga ega, o'zining jozibadorlik imkoniyatlari hisobidan turistlar oqimini jalb yetadigan joydir. Hozirgi kunda destinatsiya atamasiga turli olimlarning bergan ta'rifini quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin. Markaziy Osiyo hududida barqaror rivojlanayotgan respublika sifatida O'zbekiston turistik destinatsiyasi imijining tadqiqot natijalariga ko'ra turistik destinatsiyalarning keyingi rivoji uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish, mintaqalar alohida turizm nuqtai nazaridan geografik tadqiq etilishi, turistik klasterlarni yaratish, sohaga strategik sheriklarni jalb qilish, sayyohlik infratuzilmasi va turizm sanoatini jadal rivojlantirish, hududlarning sayyohlik imkoniyatidan to'liq va samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga olib chiqish lozim. Turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish, turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, ichki turizmni rivojlantirish, 2027-yilgacha O'zbekistonni jozibali jahon turizmi markaziga aylantirish, izchillik bilan yurtimizni dunyoning 30 ta sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlatlari qatoriga kiritish masalalariga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Janubi-g'arbiy O'zbekistonda turizmni rivojlantirish omillari”** deb nomlangan. Unda mintaqa turizmini rivojlantirishda tabiiy geografik omillarning ahamiyati, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik omillar turizmni hududiy tashkil etishdagi roli hamda turistik klasterlar - mintaqa turizmini rivojlantiruvchi omillari o'rganildi va tahlil qilingan. Tabiiy geografik omillar orasida viloyatning geografik o'rni, tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosiga asosiy e'tibor qaratildi. Shu bilan birga iqtisodiy geografik omillar orasida o'rganilayotgan hududlar aholisi, xo'jaligi, sanoati, transporti kabilarga asosiy e'tibor qaratildi. Umuman olganda, Janubi-g'arbiy O'zbekistonda mavjud turizmni hududiy joylashuvida tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik omillarning o'rni katta. Mazkur omillar ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish yangidan yangi tadqiqotlarni talab etadi.

Janubi-g'arbiy O'zbekiston asosan iqtisodiy rayonlar negizida ajratilgan respublika miqyosidagi yirik mintaqalardan biridir. Uning tarkibiga Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarini o'z ichiga oluvchi Zarafshon hamda

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan iborat Janubiy iqtisodiy rayon kiradi. Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonning umumiy maydoni 216,8 ming kv.km yoki mamlakat hududining 48,3 foizini tashkil etadi. Bu yerda, 2023-yil maʼlumotlariga koʻra, 13472,2 ming kishi yoki respublika aholisining 37,4 foizi yashaydi. Uning salmogʻiga koʻra, respublika maʼmuriy hududiy birliklari darajasida birinchi Samarqand (4118,2), uchinchi Qashqadaryo (3482,3), yettinchi Surxondaryo (2806,5), oʻn birinchi Buxoro (2009,7), oʻn uchinchi Navoiy (1055,5) turadi. Hududning respublika jami aholisi sonidagi ulushi boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Samarqand viloyati 11,4 foizni, Qashqadaryo viloyati 9,7 foizni tashkil etgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonning maʼmuriy-hududiy tuzilishi

(2023-yil 1-yanvar holatiga)

Viloyatlar	Tashkil topgan yili	Maydoni, ming km.kv	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi 1 km kv.ga	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shaharchalar	Qishloq aholi manzilgohlari
Buxoro	15.01.1938	$\frac{40,3}{18,6}$	$\frac{2009,7}{14,9}$	49,9	$\frac{11}{18,1}$	$\frac{11}{22,4}$	$\frac{68}{15,8}$	$\frac{1473}{25,1}$
Navoiy	20.04.1982	$\frac{111,0}{51,2}$	$\frac{1055,5}{7,8}$	9,5	$\frac{8}{13,2}$	$\frac{7}{14,3}$	$\frac{46}{10,7}$	$\frac{582}{9,9}$
Samarqand	15.01.1938	$\frac{16,8}{7,7}$	$\frac{4118,2}{30,7}$	245,1	$\frac{14}{22,9}$	$\frac{11}{22,4}$	$\frac{88}{20,4}$	$\frac{1901}{32,5}$
Surxondaryo	06.03.1941	$\frac{20,1}{9,3}$	$\frac{2806,5}{20,8}$	139,6	$\frac{14}{22,9}$	$\frac{8}{16,3}$	$\frac{112}{25,9}$	$\frac{859}{14,9}$
Qashqadaryo	20.01.1943	$\frac{28,6}{13,2}$	$\frac{3482,3}{25,8}$	121,7	$\frac{14}{22,9}$	$\frac{12}{24,6}$	$\frac{117}{27,1}$	$\frac{1042}{17,8}$
Jami JGʻOʻ		$\frac{216,8}{100}$	$\frac{13472,2}{100}$	62,1	$\frac{61}{100}$	$\frac{49}{100}$	$\frac{431}{100}$	$\frac{5857}{100}$

Manba: Jadval OʻzR Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Izoh: Suratda – mutlaq miqdor, maxrajda – foiz hisobida.

Turizmni rivojlantirishga bir qancha omillar taʼsir koʻrsatadi. Xususan bu omillarga tabiiy, madaniy-tarixiy, demografik, ilmiy-texnik rivojlanish va boshqa turizm industriyasini hududiy tashkil etish va rivojlantirishda ahamiyatlidir. Bu omillar ichida geografik omillarning roli, xususan hudud tabiiy sharoiti, jumladan iqlimi, suvlari, relyefi, fauna va florasi turizmni rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu omillar asosida togʻ turizmi, alpinizm, skoloturizm, speloturizm, ekoturizm kabi yuzlab turizm turlarining shakllanishiga asos boʻladi.

Dunyoda koʻpgina hududlar oʻzining sogʻlomlashtirish xususiyatlari, xususan, iqlimining oʻziga xosligi, mineral suvlari, balchiqlari rekreatsiya turizmni rivojlantirish uchun imkon yaratgan. Tahlil natijalari boʻyicha respublikada sanatoriya va dam olish muassasalari soni 2011-yilda 323 tani tashkil etgan boʻlsa, 2019-yil bu koʻrsatkich 484 taga yetgan. Tahliliy maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, oʻrganilayotgan yillar davomida turistik obyektlari soni 161 taga ortganligini koʻrish mumkin.

Turistik klasterlar tashkil etishning asosiy maqsadlari-turistik mahsulotlar joyida iste'mol qilinadi, turistik mahsulotlar nomoddiy xususiyatga ega shuning uchun iste'mol jarayonida uni ko'rib yoki baholab bo'lmaydi. Shu sababli ham mahsulotga bo'lgan ishonch muhim hisoblanadi. Hududni rivojlantirish uchun klasterli tuzilmalarni shakllantirish qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish, vakolatlarni taqsimlash, tadbirkorlik tuzilmalari bilan o'zaro ta'sirlashish, axborot ayirboshlashni jadallashtirish va yangiliklarni targ'ib etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovasion faolligini hamda hududlar innovasion jozibadorligini yuksaltirish, hududiy iqtisodiyotni diversifikasiya qilish kabi yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, mintaqada turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan, tashkiliy jihatdan turizm sohasining unga yondosh tarmoqlar bilan birgalikdagi rivojlanish yo'nalishini belgilaydigan va klaster tarkibiy qismlarining rivojlanishi uchun samarali iqtisodiy sharoit yaratuvchi Mintaqaviy turizm klasterining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan.


Dissertatsiyaning **“Janubi-g'arbiy O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish imkoniyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Janubi-g'arbiy O'zbekistonda turizmni mintaqaviy rivojlantirish imkoniyatlari, mintaq turizmi rivojlanishida brendlarning o'рни va Janubi-g'arbiy O'zbekistonning istiqbolli turistik marshrutlari o'rganilgan.

Janubi-g'arbiy O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy geografik o'рни mamlakatni o'rta qismida joylashganligi va to'rt mustaqil davlatlar, ya'ni Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston bilan chegaradoshligida o'z aksini topadi. Shuningdek, mintaqaning butun geografik xususiyatlari uning ichki va xalqaro transport tizimining yo'nalishlarini belgilab beradi. Tabiiy geografik jihatdan Janubi-g'arbiy O'zbekiston Qizilqum cho'llari va Qarshi dashti, Hisor tog'lari, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo havzasida tarixan vujudga kelgan voha (Buxoro, Qorakul, Qarshi) va vodiylardan (Zarafshon, Surxon-Sherabod) iborat. O'zbekiston turizm sohasi rivojlanishida salmoqli imkoniyatiga ega davlatdir. Bu ko'plab noyob tabiat obyektlarining mavjudligi, boy madaniy va tarixiy meros bilan ham bog'liqdir. Ohirgi 15 yilda xorij turistlarining O'zbekistonga tashrifi 15,5 marta yoki 2002-yildagi 442,1 ming kishidan 2017-yilda 2847,9 ming kishiga yetgan. O'zbekiston fuqarolarining chet ellarga tashrifi 2017-yilda 5182,5 ming kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2002-yilga nisbatan taqqoslanganda 6,5 martaga ko'pdir. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra 2023-yilning yanvar-oktyabr oylarida O'zbekistonga jami 5,5 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan. Xorij fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha tahlil qilinganda 4625,6 ming kishi (83,8 %) qarindoshlarni yo'qlash maqsadida, 659,9 ming kishi (11,9 %) bo'sh vaqt va dam olish, 115,9 ming kishi (2,1 %) xizmat yuzasidan, 50,3 ming kishi (0,9 %) davolanish maqsadida, 51,9 ming kishi (0,9 %) tijorat maqsadida va 14,7 ming kishi (0,3 %) o'qish maqsadida tashrif buyurganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, 2022-yilda hududlar kesimida mehmonxonalar soni foiz hisobida aniqlandi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 5,2 million nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning

mos davri bilan solishtirilganda 3,4 mln nafarga yoki 2,8 baravarga oshgan. O'tgan yili eng ko'p quyidagi mamlakatlar fuqarolari sayyohlik maqsadida O'zbekistonga kelishgan. Jumladan, Qozog'iston – 1 mln 551,1 ming nafar, Tojikiston – 1 mln 447,8 ming nafar, Qirg'iziston – 1 mln 356,9 ming nafar, Rossiya – 567,7 ming nafar. Shuningdek, Turkiya (75,6 ming), Janubiy Koreya (19,9 ming), Germaniya (17,7 ming), Hindiston (16,8 ming), AQSh (13,1 ming) va Fransiya (11 ming), Buyuk Britaniya (10,5 ming), Ozarbayjon (10,4 ming), Italiya (8,8 ming), Ispaniya (6,3 ming), Xitoy – 5,4 ming kishi. 2023-yilda O'zbekistonga 7 mln nafar xorijiy sayyoh kelishi va mahalliy sayyohlar soni esa 12 mln nafarga yetishi kutilmoqda.

Janubi-g'arbiy O'zbekiston hududlari kesimida mehmonxonalar Buxoro viloyati 193 ta, Samarqand viloyati 149 ta, Qashqadaryo viloyati 45 ta; Navoiy viloyati 34 ta; Surxondaryo viloyati 29 tani tashkil etgan holda jami 38,9 foizni tashkil etadi.




1-rasm. Janubi-g'arbiy O'zbekistonda mehmonxonalar ulushi.

Bizningcha mintaqaviy turizm - bu turistik xizmatlar taqdim etiladigan, turist uchun alohida qiziqish uyg'otadigan, tabiiy-iqlimiy, madaniy va tarixiy resurslar, ko'ngilochar yoki boshqa majmualardan foydalangan holda turistlar ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga ega bo'lgan o'zoro chegaradosh, bir guruh mamlakatlar yoki viloyatlardan iborat bo'lgan hudud turizmi hisoblanadi. Turistik mintaqa turistlar yoki turistlar guruhi tomonidan tanlangan, diqqatga sazovor joylar va turistik obyektlar hamda ularga moslashgan xizmatlar to'plami taqdim qilinadigan joy hisoblanadi. Fikrimizcha, mintaqaviy turizmni tashkil qilish va rivojlantirishning tasnifiy belgilari va shartlari quyidagi afzalliklardan iborat: *birinchidan*, mintaqani resurs imkoniyati jihatdan keng qamrovli tahlil qilish, turistik imkoniyatdan foydalanish samaradorligini, mintaqaviy turizmga foydalanilmayotgan resurslarni, mavjud bo'lgan va istiqbolli yangi turizm turlarini aniqlashga yordam beradi; *ikkinchidan*, mintaqaviy turizmining mehnat resurslari bilan ta'minlanishini baholash, mahalliy aholining ish bilan bandligi samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi; *uchinchidan*, mintaqadagi mavjud moddiy-texnik bazani baholashga yordam beradi. Bunda eng muhim elementlaridan biri bo'lib, mintaqaviy turizmni shakllantirishda hisobga olinishi lozim bo'lgan xavfsizlikni ta'minlashni yetarli darajada baholash va doimiy

monitoringini olib borishni talab qiladi; *to'rtinchidan*, mintaqada turizm infratuzilmalarini yaratish imkoniyatlarini beradi.

Turistik rayonlashtirishning ilmiy prinsiplarini ishlab chiqish va ularni yanada rivojlantirish, rivojlanmagan joylarda turizmni rivojlantirish uchun yangi rekreasion resurslar va boshqa shart-sharoitlarni aniqlash, har xil buyurtmali yangi turistik hududlarni aniqlash va yaratish, ularning sayyohlik ixtisosligini to'g'ri aniqlash, turizmni rivojlantirish tajribasini o'xshash sharoitlarda bir mintaqadan boshqasiga o'tkazish turli xil turistik hududlarga differensial yondashish imkonini beradi. Turistik rayonlashtirish, birinchi navbatda, hududlarning tabiiy-rekretasion resurslarini, ikkinchidan, madaniy va tarixiy diqqatga sazovor joylarni hisobga oladi. Bizningcha, har bir mintaqaning madaniy merosi va qadriyati turizmni rivojlantirish uchun muhim omil sifatida tahlil qilinishi lozim, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud rayonlashtirish holatidan farqli o'laroq, bevosita turizmning YaIMdagi ulushini aniqlash, mintaqalarning turistik imkoniyatidan yuqori darajada foydalanish, joylarda turistik oqimning barqaror o'sishiga imkon beradigan va turizm sohasining boshqaruv mexanizmi samaradorligini hamda turistik oqim juda past bo'lgan hududlar imkoniyatlaridan foydalanish darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining hududlarini quyidagi beshta turizm mintaqalariga shartli ravishda ajratishni tavsiya qilamiz (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonning turistik mintaqalarini rayonlashtirish karta-sxemasi.

O'zbekiston Respublikasining hududlarini mazkur turizm mintaqalariga shartli ravishda ajratishda hududlarning geografik joylashuvi, turizm resurslari imkoniyati, turistik jozibadorlik darajasi, tabiiy-iqlimiy va madaniy-tarixiy resurslarning, ko'ngilochar joylarning mavjudligi, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, turizmning turlari, ichki va xalqaro turizmni tashkil qilish va rivojlantirish

imkoniyatlari hisobga olindi. Tadqiqot natijalari bo'yicha O'zbekistonda milliy turizm notekis rivojlanayotganligi ayniqsa, respublikaning Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlari bugungi kunda mavjud turizm imkoniyatidan yetarli darajada foydalanmasligi aniqlandi.

Mintaqalarning turistik salohiyatidan yuqori darajada foydalanish, turistik oqimning barqaror o'sishiga erishish, turistik oqimi past bo'lgan hududlar reyting darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston hududlari Sharqiy, Shimoliy-sharqiy, Janubiy, Markaziy va Shimoliy-g'arbiy turistik rayonlarga ajratilgan.

Bugungi kunda o'rganilayotgan hududda "Yetti pir ziyorati", "Termiziylar ziyorati", "Imom Buxoriy-Mahdumi A'zam" ziyorati, "Samarqand-Teshiktosh-Qoratepa-Omonqo'ton g'ori" marshruti, "Samarqand-Kamongaron-G'os" marshruti va "Buxoro-Nurota-Sarmishsoy" marshruti kabi yo'nalishlar mavjud bo'lib, bu marshrutlarda harakatlanish turistlarda katta taassurot qoldiradi. Kelajakda noyob obyektlarga ilmiy asoslangan reja asosida geografik va turistik ekspeditsiyalar tashkil etish va turistik marshrutlar ishlab chiqish kerak. Tabiatning nodir go'shalari odatda insoniyatdan biroz xoliroq hududda joylashganligi uchun ulardan foydalanishda ilmiy yondoshgan holda faqatgina turistik marshrutlar asosida turizm foydalanish darkor.

- "O'zbekistonda turizmning milliy modelini" ishlab chiqishda tabiatning noyob yodgorliklaridan turizm foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

- hududlardagi noyob yodgorliklar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish va guruhlashtirish hamda eng noyob va turizm jozibador bo'lgan obyektlarni turistik marshrutlarga qo'shish;

- mamlakatimizda "eng noyob va eng antiqa tabiat yodgorligi" nominatsiyasi bo'yicha turistik aksiya o'tkazish;


- tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbol rejalarini ishlab chiqishda qishloq va ovullarda turizm imkoniyatini tadqiq etish masalasini inobatga olish va boshqalar.

Dissertatsiyaning "**Janubi-g'arbiy O'zbekistonni turistik rayonlashtirish**" deb nomlangan to'rtinchi bobida Janubi-g'arbiy O'zbekistonni turistik rayonlashtirishning geografik jihatlari, Samarqand turistik rayoni, Buxoro turistik rayoni, Navoiy turistik rayoni va Qashqadaryo turistik rayoni hamda Surxondaryo turistik rayonlariga ajratilib o'rganildi va tavsiflandi.

Mintaqa turizmining ArcGIS dasturi yordamida tuzilgan turistik rayonlashtirish va turistik kartalari yaratilgan. Turistik rayonlashtirishda bir qancha geografik omillar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, hududning geografik o'rni va joylashuvi, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, xo'jalik ixtisoslashuvi kabi omillar shular jumlasidandir. O'zbekiston hududlarini turistik rayonlashtirishda avvalo uning geografik o'rni katta ahamiyatga ega bo'lib, u Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligidir. Janubi-g'arbiy O'zbekistonni turistik rayonlashtirishda mintaqalar turizm imkoniyatlari va bir qancha afzalliklari mavjud, jumladan: qulay geografik joylashuvi; rang-barang landshaftlari; Buyuk Ipak yo'lida joylashgan boy madaniy, tarixiy meros; barhayot boy an'ana va urf-odatlari; samimiy mehmondo'stlik; turli xil ajoyib taomlari; boshlang'ich infrastruktura; mehnat resurslarining nisbatan arzonligi kabilar turizm ahamiyatlidir.

O‘zbekistonni mavjud iqtisodiy rayonlar to‘rini e‘tiborga olib Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston mintaqasini ma‘muriy hududiy birliklar doirasida quyidagi turistik rayonlarga ajratishni lozim topdik.

Samarqand turistik rayoni - Samarqand Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylangan davrda shahar to‘la tiklanib, dunyoning eng go‘zal shaharlari qatoriga qo‘shildi. Me‘moriy va tarixiy yodgorliklar hozirgi davrga qadar qator yodgorliklar saqlanib qolgan. Samarqand viloyatining turizm imkoniyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabr, 828-son qarorida Samarqand viloyatining turizm imkoniyatini yanada rivojlantirish, nufuzli xalqaro tadbirlarni o‘tkazish va xorijiy mamlakatlardan ko‘plab mehmonlarni qabul qilishga hududni tayyorlash, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va turistlar uchun yangi dam olish maskanlarini barpo etish, hududning iqtisodiy imkoniyati va daromad bazasini kengaytirish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish masalalariga e‘tibor qaratilgan.



3-rasm. Samarqand viloyatining turistik marshrutlar karta-sxemasi.

O‘zbekistonga kelgan turistik tashriflarning aksariyati Samarqandga kelishadi. Bu viloyat uchun katta imkoniyatdir. Prezidentimiz Samarqand viloyatiga tashrifi chog‘ida Samarqand bugungi kunda 5 mln turistni qabul qilishi kerakligi, bu esa minglab ish o‘rinlari demakdir, deb ta‘kidlagan edi. Darhaqiqat, Samarqand viloyati o‘zining ulkan turistik imkoniyati bilan jahonga mashhurdir. Ammo viloyatning tumanlaridagi turistik imkoniyatidan samarali foydalanish uchun imkoniyatlar yuqori bo‘lishiga qaramasdan ulardan samarali


foydalanilmayapti. Xususan, tumanlardagi imkoniyat o'rganilishi talab etiladi. Viloyatning aksariyat tumanlarida turistik obyektlar imkoniyatlardan barcha tumanlar ham foydalana olmayapti. Chunki, turizmning innovasion imkoniyatlari hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, qo'shimcha daromad manbai sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradi. Shu bilan birga, Samarqand viloyati bo'yicha quyidagi tematik parklarni tashkil etish mumkin deb, hisoblaymiz: Afrosiyob tematik parki (Afrosiyob harobalari va uning atrofida); Zarafshon daryosi qirg'oqlari tematik parki, Amir Temur bog'lari tematik parki (Samarqand tumanida); Zarafshon milliy bog'i tematik parki (Jomboy tumanida); Urgut tematik parki (Urgut shahri va uning atrofida); Omonqo'ton tematik parki (Omonqo'ton massivida); Ohalik tematik parki (Ohalik massivida); Nurobod tematik parki (Jom qishlog'ida); Kattaqo'rg'on tematik parki (Kattaqo'rg'on suv ombori hududida); Yergash Jumanbulbul tematik parki (Qo'shrabot tumanida); Fozil Yo'ldosh o'g'li tematik parki (Bulung'ur tumanida) va boshqalar. Shuningdek, Samarqand viloyati turistik marshrutlari, gostronomik turizmi va etnoturizm haqida ma'lumotlar berilgan. Quyidagi biz bir qancha yo'nalishdagi marshrutlarni ishlab chiqdik. Jumladan, ziyorat turizmi, qishloq turizm, geoturizm, arxeologik kabilar shular jumlasidandir (3-rasmga qarang).

Buxoro turistik rayoni - Jahonning turli burchaklaridan kelayotgan bu sayyohlarning ko'pchiligi dunyoga sharif shahar nomi bilan dong taratgan, moziyning noyob gavhari hisoblangan, shuningdek, Somoniylar maqbarasi, Minorai Kalon, Ark, Sitorai Mohi Xosa kabi asrlarga bo'ylashgan bejirim va muhtasham, qadimiy milliy arxitektura san'ati sirlarini o'zida jamlagan. Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishning hali foydalanilmagan katta potensiali mavjud bo'lib, bu borada uning biznes, konferensiyalar, madaniy-bilish, ekologik, cho'l, ekstremal, tibbiy, folklor-etnografik turizm kabi ko'plab turlarini mavjud.

Hududdagi rekreatsion resurslar turistlarni butun yil mobaynida qabul qilish imkonini bersada, xalqaro turizm mavsumi nisbatan qisqa muddat davom etadiki, natijada mavjud imkoniyatlar esa turizm sektorini malakali kadrlar bilan ta'minlab borishni qat'iy talab qiladi. Zero, turizm sohasida infratuzilmani yaratib berishning o'zi sohani rivojlantirish uchun yetarli emas. Ushbu sohada muvaffaqiyatning kaliti, avvalambor, kadrlar, ularning bilimi, malakasi, ko'nikmalari, yondashuvi, qobiliyati bilan uzviy bog'liqdir. Sharq durdonasi deya e'tirof etilgan Buxoro sharif qadim Buyuk ipak yo'li chorrahasi sifatida o'rta asrlarda fan, madaniyat, savdo-sotiq va sayyohlik markazlaridan biri sifatida dovrug' qozongan. Istiqlolning ilk yillaridanoq mamlakatimizda milliy an'analar, madaniy qadriyatlarni qayta tiklash va asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, ushbu yo'nalishning uzviy bo'g'ini hisoblangan turizmni rivojlantirish, uning istiqbollarni shakllantirish, tarixiy obidalarini restavrasiya qilish, ularni muhofazalash, xalqaro sayyohlar va mehmonlarga sifatli servis xizmat ko'rsatish shart-sharoitlarini takomillashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotida turizm ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buning natijasida yurtimiz turistik imkoniyati yildan yilga oshib bormoqda. Birgina viloyat miqyosida oladigan bo'lsak, so'nggi besh yilda hududda sayyohlar oqimi 15-20 foizga oshdi. Ularning aksariyatini Ispaniya, Yaponiya, Malayziya,

Indoneziya, Buyuk Britaniya singari xorijiy mamlakatlar vakillari tashkil etadi. Viloyatga tashrif buyurgan sayyohlarga yetarli shart-sharoitlarni yaratish uchun turistik kompaniyalar soni 40 taga, mehmonxonalar 114 taga yetkazildi. Ayni vaqtda ushbu mehmonxonalarda bir kunda 4,5 ming nafardan oshiq turistlarni qabul qilish imkoniyati mavjud. Shu barobarida viloyatdagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilganda ushbu raqamlar ko'lami yana bir necha barobarga ko'payadi. Xususan, kelgusida xalqaro miqyosda tan olingan ko'plab tarixiy yodgorliklarni muhofaza etish va turistik marshrutlarga qo'shish, ekoturizm, xalq tabobati, shashmaqom, folklor singari nomoddiy madaniy meroslardan unumli foydalanish orqali viloyatda sayyohlarni yanada keng jalb etish imkoniyatlari mavjud. Yetti pir ziyoratgohi eng muhim brend hisoblanadi. Buxoro-G'ijduvon-Shofirkon-Yangibozor-Romitan-Vobkent-G'ijduvon-Buxoro ziyorat turistik marshruti, Buxoro-Jayron ekoturmarshruti, Buxoro-Qorako'l-Sho'rko'l marshruti va h.k. (4-rasm).




4-rasm. Buxoro viloyatining turistik marshrutlar karta-sxemasi.

Navoiy turistik rayoni - Navoiy yosh va navqiron viloyat bo'lsada, uning insoniyat tamadduniga katta hissa qo'shgan qadimiy va betakror tarixi bor. Bular Sarmishsoy darasidagi iptidoiy qoyatosh suratlari, Uchtut chaqmoqtosh shaxtalari, Raboti Malik karvonsaroyi va Sardobasi, Qosim Shayx Azizon xonaqohi va Nurotaning noyob me'moriy obidalari kabi bebaho madaniy me'ros obektlaridir. Cho'l hududi cho'l ekoturizmini tashkil etish imkoniyatlarini yaratsa, tog' hududlari esa tog' ekoturizmini tashkil etish uchun katta imloniyatlarga egadir. Nurota ziyoratgohi viloyatda, qolaversa respublikadagi eng diqqatga sazavvor maskanlardan biri hisoblanadi. Karmana tumanining g'arbiy chegarasida joylashgan "Raboti Malik" yodgorligi Markaziy Osiyodagi monumental

me'morchilik yodgorliklaridan biridir. Hozirda Rabotning peshtoqi va Sardobasi qolgan. Qadimda Rabot karvonsaroy, mehmonxonalar, ovqatlanish xonalari va tahoratxona kabilardan iborat bo'lgan. Mazkur obida 1069-1070-yillarda podshoh, Shamsulmulk Nosir ibn Ibrohim (1068-1080) tomonidan barpo etilgan deb taxmin qilinadi. Qadim Karmana tarixidan guvohlik berib turuvchi yana bir obida Raboti Malik ro'parasida joylashgan Sardobadir. Sardoba ichimlik suvi saqlanadigan inshoot bo'lib, karvonsaroyga tashrif buyurgan yo'lovchilarning chanqog'ini bosishda, tuyalari va ot-ulovlarini sug'orib olishlarida suv manbai vazifasini o'tagan. Navoiy viloyatida turistik resurlar miqdori ko'p, ammo ularni targ'ibot qilish zarurligi zarur. Viloyat hududi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, turistik marshrutlarni ishlab chiqishda undan foydalanuvchilarning destinatsiyasidan kelib chiqqan holda mahalliy turistlar uchun alohida, xorijiy turistlar uchun alohida yondashuv talab qilinadi. Bunda mahalliy turistlar uchun uzoq vaqtlar davomida qadriyatlarni shakllantirgan obektlarga borish asosiy bo'lishi mumkin. Quyidagi turistik marshrutlar talabgir bo'lishi mumkin:

1. Navoiy-Karmana-Konimex-To'dako'l,
2. Navoiy-Karmana-Yangirabot-Nurota-Aydarko'l.



5-rasm. Navoiy viloyatining turistik marshrutlar karta-sxemasi.

Marshrutning tayanch obekti sifatida viloyat markazi Navoiy shahri xizmat qilishi lozim bo'ladi. Xorijiy turistlarni viloyat hududida maksimal darajada uzoq muddatga ushlab qolish iqtisodiy jihatdan jozibador ekanligidan kelib chiqqan holda

eng kamida 3 kunlik marshrutlar ishlab chiqish zarurligi ko‘rinadi. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda “Klassik tur” hamda “Horizon tourism” turlariga ajratish zarur. “Klassik tur” quyidagi obektlarni qamrab olishi mumkin. 1.Navoiy-Karmana-Yangirabot-Chuya-Nurota-Aydarko‘l va 2.Aydarko‘l-Nurota-Konimex-Qiziltepa-To‘dako‘l marshrutidir.

Qashqadaryo turistik rayoni – viloyatning tabiiy turistik resurslari, madaniy-tarixiy turistik resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslari va viloyatning gidrografik obyektlari hamda viloyatning shahar va qishloq tumanlarini madaniy turistik imkoniyatiga ko‘ra guruhlashtiriloshi haqida ma‘lumtlar keltirilgan. Qashqadaryo viloyatining turizm sohasini rivojlantirish davlat dasturiga asosan rejalashtirilgan 167 ta tadbir va loyihalarni amalga oshirish uchun 109 mln. dollar miqdorida investisiyalar o‘zlashtirildi. Shuningdek, viloyatning 43 ta tarixiy-madaniy obyektlarini qayta tiklanishi va ularning infratuzilma holatini yaxshilanishi bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Qashqadaryo viloyati moddiy madaniy sayyohlik rekreatsiya obyektlarining shahar va qishloq tumanlari bo‘yicha hududiy tarkibi hamda viloyatidagi turistlar ko‘p tashrif buyuradigan madaniy meros obyektlarining hududiy tarkibi o‘rganildi. Shu bilan birga, viloyatning shahar va qishloq tumanlarini madaniy turistik imkoniyatiga ko‘ra guruhlashtirish ishlari, viloyati moddiy madaniy sayyohlik rekreatsiya obyektlarining shahar va qishloq tumanlari bo‘yicha hududiy tarkibi hamda viloyatidagi turistlar ko‘p tashrif buyuradigan madaniy meros obyektlarining hududiy tarkibi tahlil qilindi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, turistlar eng ko‘p tashrif buyuruvchi obyektlarning 40% yaqini 1 darajali diqqatga sazovor madaniy meros obyektlari guruhiga mansub bo‘lgan Qarshi va Shahrisabz shahriga hamda Yakkabog‘ va Kasbi tumanlariga to‘g‘ri keladi. Karshi-Kitob-Shaxrisabz-Kenglik stansiyasi-Gilon-Karshi marshturi, Qarshi - Yakkabog‘ - Eski Yakkabog‘ - O‘rtaqishloq - Ishkent - Tutak - Chubran - Ug‘un -Guldarasoy - Qarshi marshruti va boshqa turli mavzudagi turpaketlar jozibador marshrutlardir. Hisor tog‘lari va ushbu nomdagi qo‘riqxonaning tabiiy landshaftlarini asl holda saqlab qolish, uning turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan turizm samarali foydalanish muhimdir. ilmiy ekspedisiya natijalariga ko‘ra, tavsiya etilayotgan har bir sayohat yo‘nalishi yaqindan borib o‘rganilsa, yangi bir-birini takrorlamaydigan tabiiy obyektlari turistik marshrutlarga kiritilsa bu hududga kelayotgan sayyohlarning yanada oshishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda ushbu qo‘riqxonada diqqatga sazovor tabiat yodgorliklarini aniqlash, ro‘yxatga olish, ta‘rifini yozish, kartalashtiilsa, banerlar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarda reklama yo‘lga qo‘yilsa bu hududlarga tashriflar soni oshishi mumkin.


Surxondaryo turistik rayoni - Bugungi kunda Surxondaryo viloyati o‘zining turistik va rekreatsiya imkoniyatlari, o‘ziga xos landshafti, betakror tog‘lari, takrorlanmas tabiati, tarixiy-madaniy-arxitektura yodgorliklari va boshqa turistik imkoniyati bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Viloyatining turizm imkoniyatini yanada rivojlantirish, hududning noyob tarixiy-madaniy va me‘moriy obidalari bilan keng tanishtirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va ko‘rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini takomillashtirish, ichki turizmni faollashtirishda hamda yangi ish o‘rinlarini yaratilishida turizmning o‘rni

beqiyos hisoblanadi. Viloyat o'zining Sangardak sharsharasi, Termiziyalar ziyoratgohlari, Machay g'ori, shifobaxsh buloqlari, qadimgi buddizm o'choqlari bilan mashhur bo'lib, ichki va tashqi turistlarni o'ziga jalb etib keladi. Respublikada vizasiz yoki uning soddalashtirilgan tizimini yo'lga qo'yilishi chetdan turistlar oqimini yanada kengaytirdi. Surxondaryo viloyati turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Jumladan, bugungi kunda bu yerga turistlar oqimi asosan Fayoztepadagi buddizm ibodatxonasi, III asrga tegishli Kampirtepa qal'asi, Zurmala minorasi, Hakim Termiziy va Imom at-Termiziy majmualari, Qirqqiz qal'asi, Kokildor ota, Sulton Saodat, Jarqo'rg'on minorasi, Qora kamar g'ori kabi obyektlar tomon yo'naltirilmoqda. Ushbu madaniy meros obyektlari bilan tanishish, vohaning betakror tabiatidan bahramand bo'lish uchun bu yerga keluvchi sayyohlarga qulay mehmonxonalar va u bilan bog'liq xizmatlar mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Arxitektura yodgorliklari, jumladan, eramizdan oldingi shahar va qal'alar xarobalarining xalqaro turizmdagi o'rnini nihoyatda beqiyosdir. Surxondaryo viloyatida joylashgan arxeologik yodgorliklarni turizm kartasini tuzishda shu kungacha qilingan arxeologik tadqiqotlarni umumlashtirish muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning oxirgi 5-bobida **“Janubi-g'arbiy O'zbekiston turizmni rivojlantirishdagi muammo va istiqbollari”** bayon qilingan bo'lib, Mintaqa turizmni rivojlantirishning milliy modeli va uni takomillashtirish muammolari, mintaqada turizmni rivojlantirish muammo va istiqbollari bayon qilingan hamda qo'yilgan vazifalarni yechimiga qaratilgan ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan. Janubi-garbiy O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning milliy modeli uning avvalo geografik o'rnini va joylashuvi, xo'jalik ixtisoslashuvi, hududdiy tashkil etilishi kabi masalalar va uni takomillashtirish muammolarini tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi. AQSHning Stenford universiteti professori G.Itskochich tomonidan hukumat-biznes-universitet uchala spirali g'oyasi asosida mintaqa turizmni rivojlantirishning milliy modeli sifatida uch, to'rt, bech qirrali turistik spiral bozor modeli katta samara beradi. Turistik resurs-turpaket-turbiznes modeli uch qirrali spiral hisoblansa, turistik siyosat va turistik ta'lim to'rtinchi va beshinchi spirallarni shakllantiradi. Shuningdek, mintaqa turizm milliy modelida Pol Krugmanning yangi to'lqinlar va yumshoq iqtisodiyot tamoyillarini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak, Chunki, bunda tabiatdan rekreatsiya va turizmda foydalanish ham nazarda tutulgan.

Janubi-g'arbiy O'zbekiston misolida turizm modeli yadrosida quyidagi jihatlardan iborat bo'lishi lozimdir, jumladan: Buyuk Ipak yo'li chorrahasi va boy madaniy, tarixiy meros; rang-barang landshaftlari; barhayot boy an'ana va urf-odatlar; samimiy mehmondo'stlik; turli xil ajoyib taomlari; boshlang'ich infrastruktura; mehnat resurslarining nisbatan arzonligi kabilar turizmga ahamiyatlidir. Milliy modelni shakllantirishda shartli ravishda tabiiy va madaniy turistik resurslar asos bo'lishini nazarda tutsak eng avvalo mintaqada joylashgan davlat qo'riqxonalarida milliy rezervatlar tashkil qilish, ya'ni qo'riqxonada ichida qo'riqxonada tabiati, undagi bioxilmaxillikka zarar yetkazmasdan undagi qo'riqlanayotgan o'simlik, hayvonot olamiga turistlar tomosha qiladigan turistik marshrutlar ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari, Janubi-g'arbiy O'zbekistonning barcha mintaqalarida juda ko'p

ziyorat maskanlari va turli davrlarga mansub bo‘lgan arxeologik qadamjolarining turizmda ahamiyati kattadir (5-rasm). Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston turizmini rivojlantirishdagi eng katta muammolardan biri bu ekologik turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanilmayotganligidandir. Vaholanki, Jahon turizm tashkiloti tomonidan ekologik turizmning rivojlanish tendensiyalari aniqlangan bo‘lib, ekologik turizm beshta asosiy strategik yo‘nalishlar qatoridan joy oladi. Ekoturizm o‘zining mazmun mohiyatiga ko‘ra insonlarning nafaqat ona tabiat qo‘ynida dam olish, hordiq chiqarish yoki muayyan sog‘lomlashtirish bilan shug‘ullanishi, shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ishlarni bajarishga undaydi. O‘zbekistonda dunyoga mashhur o‘nlab g‘orlar bo‘lishiga qaramay, birorta g‘or turistik ekskursiya tashkil etish uchun tayyorlanmagan. Amir Temir g‘ori, Omonqo‘ton g‘ori “Kilsi” g‘ori«Yaxtom» g‘ori ajoyib speloturistik ob‘ekt bo‘la oladi.



6-rasm. Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston arxeologik va ziyorat turizm marshrutlari kartasi.

Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlanishi istiqbollari parloq hisoblanadi. Qishloq turizmini hududiy tashkil etish va rivojlantirish uchun bizningcha quyidagi masalalarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, mamlakatimizda aholi manzilgohlarini o‘rtasidagi tavofut muayyan

tafovut borligini inobatga olib, qishloq joylari geografiyasida qishloq turizmi geografik tadqiq etilishi kerak; ikkinchidan, Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonda qishloqlaridagi agroturistik va etnoturistik salohiyati turizm nuqtai nazaridan oʻrganish talab etiladi; uchinchidan, agroturistik ekspedisiyalar uyushtirish va istiqbolli qishloqlardagi turistik imkoniyatlar oʻrganilishi kerak; toʻrtinchidan, qishloq joylari yoki agroturizm boʻyicha qonun ishlab chiqish va boshqalardir. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston turizmini rivojlantirish boʻyicha SWOT tahlili natijasi shuni koʻrsatadiki, mintaqada turizmni rivojlantirishning kuchli tomonlari bilan birgalikda zaif tomonlari, rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud muammolari hamda sohani rivojlantirish istiqbollari belgilovchi asoslar tahlil etildi.

XULOSA

Yangi Oʻzbekistonda turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirish uchun har bir mintaqa imkoniyatlari ilmiy asosida tadqiq etilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi lozimdir. Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston mintaqasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar quyidagi tavsiya va takliflarni ishlab chiqishga imkon beradi:

1. Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonning maʼmuriy-hududiy birliklari boʻyicha kompleks geografik tahlil qilish, uning ulkan tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar imkoniyatiga ega ekanligini koʻrsatadi. Ularni faol turizm faoliyatiga jalb qilish va shu asosda yangi ish oʻrinlari yaratish mintaqalar iqtisodiyoti uchun katta samara beradi.

2. Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish maqsadida ilk bor turistik resurslar imkoniyatini kompleks baholash metodikasi va baholashning eng muhim komponentlar toʻplami shakllantirildi. Viloyatlar hududlari tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy turizm resurslarini kompleks manzilli baholashning qulaylik darajasi boʻyicha mezonlari ishlab chiqildi. Unga koʻra, mintaqa: yuqori, oʻrta va past imkoniyatli hududlarga ajratildi va tavsiflandi.

3. Mintaqaning turistik resurslar imkoniyatini kompleks baholash natijasida ilk bor hududlarning turistik-rekreasion imkoniyati boʻyicha reytingi ishlab chiqildi. Buning asosida hududlardagi mavjud turistik resurslardan oqilona foydalanish, istiqbolda turizm faoliyatining koʻplab turlarini rivojlantirish imkonini yaratadi.

4. Dissertatsiya ishida Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonni turistik rayonlarga ajratish asosida va kompleks turistik mahsulotlar yaratish maqsadida birinchi marta “Uch yoʻnalish” brendi ostida yangi aralash (eko, agro, astronomik, ziyorat, tarixiy, arxeologik, ekstremal, geoturizm, speleo, rekreatsiya, gastronomik) turdagi 1 kunlik va koʻp kunlik turistik marshrutlar va ularning namunaviy pasportlari ishlab chiqildi. Ular chiziqli, halqali va radial marshrutlarni muayyan tarzda mujassamlashtirgan. Ushbu marshrutlar mintaqa turizmiga xos boʻlgan bitta maskanda turgʻun holda emas, balki koʻrsatilgan yoʻnalishda faol harakatlanish orqali dam olishni taʼminlaydi.

5. Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonning turistik resurslarini turizm sohasini rivojlantirish maqsadida baholangan, viloyatlar hududi turistik resurslar

imkoniyati, tashrif buyurgan turistlar soni, turistlarning ehtiyojlarini qanoatlantira oladigan sayyohlik obyektlari, transport va boshqa infratuzilmalarni rivojlanganlik darajasi, hududlarda mavjud turizm turlarini va yangi yo‘nalishlarni shakllantirish, respublikamiz va jahon turizmidagi o‘rni asosida va ma‘muriy birliklarini hisobga olgan holda turizm maqsadida rayonlashtirildi va turistik rayonlariga tavsif berildi. Bularning asosida 1:2000000 masshtabli “Janubi-G‘arbiy O‘zbekiston turistik kartasi” yaratildi.

6. Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda turizmni rivojlanishiga xizmat qiladigan 1:2000000 masshtabli “Janubi-G‘arbiy O‘zbekistonning turistik-rekreasion imkoniyati kartasi” ilk bor ArcGis dasturi asosida yaratildi. Ushbu kartalar asosida Janubi-G‘arbiy O‘zbekistonning turistik-rekreasion imkoniyatining hududiy tarkibi haqida ma‘lumotlar va mehmonxona infratuzilma obyektlari bilan ta‘milanishi bo‘yicha tafovutlar aniqlandi.

7. Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonning turizm infratuzilma imkoniyati (mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari) bo‘yicha guruhlariga ajratildi. Unga ko‘ra hududlar: yuqori imkoniyatli (Samarqand, Buxoro); o‘rtacha imkoniyatli (Navoiy, Qashqadaryo); o‘rtachadan past imkoniyatli (Surxondaryo) guruhlariga ajratildi. Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston turizm infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirishda, uzoq muddatli rejalashtirishning maqsadli ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘lash, hududlarning mavjud imkoniyatidan kelib chiqib, ma‘muriy-hududiy birliklar bo‘yicha turizmni rivojlantirish chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

8. Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda yo‘l transport xizmatlari infratuzilmasini takomillashtirishda yo‘llarning sifatini yaxshilash, avtostansiyalar, temir yo‘l stansiyalari, bekatlar qurish va ta‘mirlash, sohadagi ilmiy tadqiqot ishlariga investisiyalarni jalb qilish, sohaga xususiy tadbirkorlar va xorijiy investisiyalarni jalb qilish zurligi asoslandi.

9. Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston hududidan xalqaro va respublika ahamiyatidagi avtomobil yo‘llari tabiiy, tarixiy-madaniy resurslar imkoniyatining kattaligi, shuningdek, mahalliy hamda xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb etadigan sanoat, qishloq xo‘jaligi, rekreasion, tanishuv, eko-ziyorat turistik obyektlarining ko‘pligi turizmning ko‘plab yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun yetarlicha qulaylik (ustunlik)larga ega ekanligi ko‘rsatildi.

10. Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda turizm va rekreasiyani rivojlantirish istiqbollari belgilash bo‘yicha SWOT tahlil bajarildi va natijalari turizm sohasining viloyat iqtisodiyotidagi ulushi kamligi, turistik tashkilotlar faoliyati, turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, turizmni moliyalashtirish, kadrlar yetishmasligi va boshqa shu kabi masalalarni bartaraf qilish hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatildi.

11. Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonning tekislik, tog‘oldi va tog‘li hududlari turistik resurslarini kompleks baholash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda turizm infratuzilmasining hududiy tarkibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

УСМАНОВ МАЪРУФДЖАН РУСТАМОВИЧ

**ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ЮГО-
ЗАПАДНОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

11.00.02 – Экономическая и социальная география

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована под номером B2024.2.DSc/Gr60. в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz), и на также информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный советник:	Аббасов Субхан Бурханович доктор географических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Турдимамбетов Изимбет Рахметович доктор географических наук, профессор Жумаханов Шавкатжон Заиржанович доктор географических наук, доцент Тураев Баходир Хатамович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 4-июля 2024 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, ул. Университетский бульвар 15, главный корпус СамГУ 105-аудитория. Тел.: (66) 239-19-36, факс: (0366) 2391936; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована под №39) адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом-15., Тел.: (66) 239-11-40

Автореферат диссертации разослан "14" июня 2024 года.
(реестр протокола рассылки №13 от "3" июня 2024 года)



Л.З.Ибрагимов
Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, д.г.н., (DSc), доцент

Б.А.Мелиев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по географическим наукам (PhD)

К.С.Ярашев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.г.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (DSc) доктора наук)

Актуальность и необходимость темы диссертации. Являясь важным источником дохода многих стран мира, туризм занимает ключевое место в их национальной экономике. Следовательно, к 2030 году число людей, участвующих в мировом туризме, достигнет 1,8 миллиарда человек⁴. В отчетах Всемирной туристской организации (UNWTO) определены задачи раскрытия инновационных особенностей и аспектов развития туризма в программах устойчивого развития туризма. С этой точки зрения развитие географического туризма во всем мире, увеличение потока туристов на туристские объекты, повышение туристского потенциала, совершенствование туристской инфраструктуры с учетом потенциала туризма требует правильной оценки туристских ресурсов и выявления новых направлений.

Особое внимание уделяется современным исследованиям, создающим основу для эффективного развития туристического рынка с целью совершенствования мировой туристической отрасли, обоснования ее географического положения в экономике, дальнейшего увеличения ее географического значения и доли. По прогнозу Всемирной туристской организации (UNWTO), тенденция роста международного туризма в туристической отрасли до 2030 года будет разной в разных регионах, и позитивное развитие стабильной динамики роста в ряде стран Азиатско-Тихоокеанского региона является перспективным. признано международными экспертами. Кроме того, приоритет отдается выявлению территорий с высоким географическим туристским потенциалом и туристскими дестинациями, специфическим региональным различиям в развитии туризма, оценке их внутренних возможностей, увеличению видов услуг, предоставляемых туристам, их региональной организации.

В нашей республике реализуются комплексные меры по реализации мероприятий в сфере туризма и отдыха, в частности по использованию современных методов с учетом ее природно-географических особенностей. 35-й целью «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан №ПФ-60 от 28 января 2022 года, является увеличение количества внутренних туристов с 12 миллионов в рамках программы «Путешествие по Узбекистану» и иностранных гостей в республике. Увеличить количество туристов до 9 миллионов...»⁵ определены важные задачи. В связи с этим важно определить приоритетные цели и задачи по опережающему развитию туристической отрасли в нашей республике, дальнейшему повышению ее роли и доли в экономике, совершенствованию туристической инфраструктуры.

Постановление Президента Республики Узбекистан №ПФ-6165 от 9 февраля 2021 года «О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и

⁴ <https://www.unwto.org/tourism-in-2030-agenda>

⁵ Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 20.02.2022 г. №ПФ-60

паломнического туризма в Республике Узбекистан», Указы Кабинет Министров Республики Узбекистан от 24 февраля 2021 года № 100 «О дополнительных мерах по развитию внутреннего и паломнического туризма», № 978 от 3 декабря 2018 года «О порядке выделения земельных участков в пределах водоохранных зон экотуризма и водоемов», Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и другие нормативно-правовые документы, связанные с данной деятельностью, настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации указанных задач.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование осуществлено в соответствии с приоритетным направлением и является частью развития науки и технологий республики I. «Духовное, этическое и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики», VIII. «Науки о Земле» и V. «Формирование туристских территориальных систем, оценка и анализ развития рекреационно-туристских возможностей, экономическая и социальная география, территориально-производственные комплексы (системы)».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации.⁶ Научные исследования, связанные с региональным развитием туристических услуг, выявлением их особенностей, перспектив развития, проводятся ведущими мировыми высшими учебными заведениями и научными центрами, в том числе Всемирной туристской организацией (Испания), Атлантическим университетом Флориды (США), Университетом Южная Алабама (США), Национальным университетом Луиса (Канада), Бангорский университет (Великобритания), Стаффордширский университет (Великобритания), Университет Букурешти (Румыния), Университет имени Александру Иоана Кузы в Яту (Румыния), Университет Сунь Ятсена (Китай), Карибский институт туризма (Барбадос), Университет Ораго (Новая Зеландия), Московский государственный университет (Россия), а также Ташкентский государственный университет путей сообщения (Узбекистан), Ташкентский экономический университет (Узбекистан), Самаркандский институт экономики и сервиса (Узбекистан), Международного университета туризма «Шелковый путь» (Узбекистан), также на базе Ташкентского государственного экономического университета и Самаркандского государственного университета.

Получен ряд научно-методических результатов по ускоренному развитию сферы туристских услуг, совершенствованию организационно-экономической системы государственной политики в сфере туризма на ближайшую перспективу, обеспечивающей эффективное использование туристского потенциала регионов, совершенствованию научно-методических основ механизмов регулирования эффективного использования целевых

⁶ Обзор зарубежных исследований по теме диссертации: <https://www.unwto.org>; <https://www.fau.edu>; <https://www.southalabama.edu>; <https://www.bangor.ac.uk>; <https://www.aber.ac.uk>; <https://www.sysu.edu.cn>; <https://www.msu.ru>; <https://tsue.uz>; <https://arm.sies.uz>; <https://univ-silkroad.uz> на основе таких сайтов, как.

задач развития туризма: усовершенствованные механизмы, направленные на повышение занятости населения в сфере туризма путем придания экономике туризма статуса стратегического сектора, диверсификации экономики, которая, должна стать ведущей силой для всестороннего быстрого развития ее взаимозависимости во всех регионах, превращения ее в мощный инструмент структурных преобразований и устойчивого развития (Institute of Labor Economics, Германия), теоретические и практические вопросы туризма, географические особенности, теоретические и практические вопросы туризма, географические особенности (Alexandru Ioan Cuza din Iasi, Румыния), региональные исследования туристических направлений (The economics of tourism destinations, ББ), привлечение местных и иностранных инвестиций для развития туризма, координация сотрудничества, направленная на развитие сектора и обеспечение консультаций (Regional Tourism New Zealand (Новая Зеландия), разработаны важные стратегии туристического маркетинга и целевого развития (Brisbane Economic Development Agency (Австралия)), современные научные и образовательные программы, направленные на развитие гостиничного туризма (The Caribbean Tourism Institute, (Барбадос)), поддержка отношений между туристическими организациями и заинтересованными сторонами, глубоко изучены актуальные проблемы, стоящие перед отраслью.

В мире, проводятся научно-исследовательские работы по ряду приоритетных направлений, в области географической оценки и районирования туризма и туристических ресурсов, в том числе: определение влияния туризма, как ведущей отрасли экономики на социально-экономическое развитие регионов и его устойчивости, исследований региональной организации туризма и уровня влияния на региональную экономику, контроля устойчивого развития туристической деятельности в регионах, а также формирование и совершенствование видов туризма; оценки эффективности использования туристических ресурсов; оценки значения туризма в контексте диверсификации региональной экономики и применения дистанционных методов, при исследовании туристических систем в будущем, в том числе на основе ГИС-технологий; составление различных тематических туристических атласов регионов, туристических маршрутов, туристского районирования, составления карт, оценки и зонирования туристических ресурсов регионов, разработка географических основ их оптимизации

Степень изученности проблемы. Первые исследования становления и развития географии туризма (ГТ) как науки, проводили И.Г.Коль, А.Геттнер, во второй половине XIX века, они раскрыли специфические стороны ГТ. Термин «География туризма», впервые был введен в науку в 1905 году, Д. Страднером. Р. Бланшар (1920) первым во Франции провел научные исследования по организации туризма и туристических маршрутов в Альпах. В Италии А.Мариотти, разделил исторические этапы туризма и изучал его на этой основе. В 1936-1939 годах, большое значение придавалось подготовке туристических кадров в области туризма в Ягеллонском университете в

